ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№5(3)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 460 sahifa, 1-may, 2026-yil.*

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi ............ 10
Mirzaraxmonova Maftuna Ibroximjon qizi

Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv ............ 13
Ne’matov Karimjon Shavkat o‘g‘li

O‘qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ... 19
Mahmudova Shoira Shavkat qizi

O‘zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi ............ 25
Gadoyeva Muborak Jumaqulovna

O‘quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari ............ 30
Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna

Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi ............ 34
Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati ............ 37
Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna

“Xonada o‘simliklarni o‘stirish” intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o‘quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ............ 41
G‘aniyev Abduqahhor Gadoyevich

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari ............ 46
Joldasov Ixtiyor Suyundikovich

Boshlang‘ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari ............ 50
N. Asadov

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik mezonlari ............ 53
G. Xamidova

Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta’siri ............ 56
Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi

The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students’ Personality ............ 59
Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi

Noto‘liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O‘zbekiston namunasida) ............ 64
Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o‘g‘li

Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta’lim metodlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish ............ 69
Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna

Matematika ta’limida axborot-kommunikatsiya texnalogiyalaridan foydalanishning metodik asoslari ............ 73
Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ilhom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi

O‘qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili ............ 77
Azimova Rushana Zokirjon qizi

Oliy ta’lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari ............ 81
Shodiboyev Shohruh Shuhrat o‘g‘li

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta’minlash metodikasi ............ 86
Qahhorova Sevara Alimardonovna

O‘quvchi-yoshlarni virtual olam ta’siridan himoya qilishning nazariy asoslari ............ 90
Isayeva Guli Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o‘g‘li

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni ..................93
Xilvatova Go'zal Sultonovna

Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish ..................97
Jurayev Bobomurod Tojiyevich

Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari ..................101
Nurmatova Muxlisa Akmal qizi

Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish (Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida) ..................106
Yusupova Shahnoza Abduxafizovna

Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish ..........111
Tursunova Surayyo Botir qizi

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili ..................115
Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning nazariy jihatlari (Learning outcomes) asosida ..................124
Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi

Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari............128
G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi

Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish ..................132
Mamadaliyev Abror Akbarjonovich

Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi ..................137
Yagafarova Nazilya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek

O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi ......142
Baymuratova Mukaddas Xamdamovna

Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli ..................150
Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna

Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni..................155
To'rabekova Aziza Mirzabek qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni ..................159
Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi

Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике: лингвосемиотический и когнитивно-дискурсивный анализ ..................164
Якунина Ангелина Алишеровна

Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish ..................169
Jabbarov Rustam Ravshanovich

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari..................176
Amanbayeva Oydin Urazali qizi

Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati ..................181
Suyunov Navro'z Alisher o'g'li

Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi ..................186
Xalilov Lenar Shevketovich

Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari..................190
Jumanova Xafiza Xoliqulovna

Samarqand arxitektura-qurilish instituti va shahar infratuzilmasi rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik (1950–1990-yillar) ..................195
Abulqosimova Dildora Asrorovna, O'ralov Sodiqjon

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limida ikkilamchi cheklovlarni kamaytiruvchi ta'lim texnologiyalari .....199
Qo'ziyeva Shahnoza Muhammadsoli qizi

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

O'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani rivojlantirishda mumtoz musiqaning o'rni va ahamiyati .................202
Baymanova Feruza Abralovna

Ommaviy jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishning pedagogik asoslari ............................207
Xayitova Ulfatoy Tursunovna

Yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ................................211
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich

Muhandislik ta'limida Bernulli va Puasson taqsimotlarini texnologik jarayonlar misolida o'qitish metodikasi...216
Qo'ziboyeva Nozima Yoqubjon qizi, Maxmanazarov Sardor Toirjon o'g'li, Saydullayev Asadbek Xayrullo o'g'li

Психолого-педагогические основы обучения теме “производная” в курсе алгебры и начал анализа президентской школы .......................................................................................225
Шахноза Холмуродова Зоир кизи

O'qish savodxonligi darslarida Bloom taksonomiyasi va 4K kompetensiyalarining integrativ modeli ...........234
Farsaxonova Mastura Jalol qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini baholash mezonlari va monitoring tizimini takomillashtirish: indikatorlar asosidagi boshqaruv modeli.............................................241
Jo'rayeva Dilrabo Kamoliddin qizi

Maxsus mashqlar yordamida start tezligini oshirish metodikasi..................................................................244
Sitora Elova Axmatqulovna, Panjiyeva Gulzoda Eshdavlat qizi

Amudaryo foreli (Salmo trutta oxianus) O'zbekiston hududida tarqalishi va ekologiya ta'siri......................248
Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Xolmo'minova Sevinch Sirojiddinova, Qurbonazarova Marjona Zokirovna

Suv va quruqlik muhitiga moslashgan amfibiyalarda adaptatsiya xususiyati ...............................................251
Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Axmamatova Feruza Shamsiddin qizi, Qo'ldoshova Ruxshona Navro'z qizi

O'zbekistonda tarqalgan kaptarsimonlar xilma-xilligi, ularni tarqalishi, biologik xususiyatlari va amaliy ahamiyati..........................................................................................255
Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Xolmo'minova Jasmina Baxtiyor qizi, Saidova Dilnoza Rustamovna

Surxondaryo viloyatidagi qo'lqanotlilar turlarining morfologik tasnifi va hududiy farqlari..............................259
Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Yarashova Sarvara Islomovna, Bahromova Shahzoda Abduqodirovna

Игровые технологии как средство активизации коммуникативной деятельности учащихся на занятиях по русскому языку..........................................................................................267
Халикова Гульбахор Исановна

Yoshlarni pedagogik kasbga yo'naltirish ishlarini o'rganishning konseptual va metodologik asoslari ...........270
Matkarimova Muxabbat Abuovna

O'qish savodxonligini baholovchi topshiriqlar turlari..........................................................................277
Rasulova Mushtariybonu

Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlaridagi bolalarda tashqi nafas olish tizimi xususiyatlari .....................281
Orazbaeva Navbaxor Mratbaevna

“Kompyuter tarmoqlari” fanini o'qitishda dasturiy-didaktik vositalardan foydalanish ...................................285
Muqimov Shahzodbek Ixtiyor o'g'li

Yangi O'zbekiston: yangilanish va taraqqiyot omillari (Qashqadaryo viloyati misolida)................................288
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, Safarova Sevara Saloxiddinovna

Raqamli ta'lim strategiyalaridan foydalanib o'qish samaradorligini oshirish ................................................294
Narzullayeva Gulzira Xayrullo qizi, Abdusottarova Farog'at Olimjon qizi

Oliy ta'limda “Zoologiya” kursini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish (“umurtqali hayvonlar” misolida).....................................................................299
Xonnazarova Mamlakat To'lqinovna

Oliy ta'lim muassasalarida ommaviy sportni rivojlantirish strategiyalari ......................................................303
Xudoyberganov Javlonbek Soatboy o'g'li

Accommodating a Teenage English Learner With Tourette-Related Stammering in Uzbekistan State Multilevel Test Preparation: A Single-Case Study.............................................307
Yulduz Sultanova

Yengil atletikada to'siqlar osha yugurish texnikasini takomillashtirish va o'rgatish uslubiyati.......................313
Chariyev Ulug'bek Abdujabbarovich, Radjabov Jaxongir Furkatovich

The Interaction of Language and Culture in Intercultural Conflict Communication ......................................317
Gulnoza Khushnazarova

O'smir shaxsida o'zini o'zi tushunish psixologik muammo sifatida..............................................................321
Mahmudov Abdurasul

O'quvchilar nutqida milliy-madaniy leksik birliklarni qo'llashga o'rgatishda semantiklashtirish .....................325
Tursunova Javhar Bakir qizi

Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich ta'limda matematik madaniyatni shakllantirish:
Qori Niyoziy merosi asosida ..........................................................................................................................329
Axmedova Nargiza Toychibekovna

A2 darajadagi o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda adaptiv yondashuvning roli .........333
Nezametov Zuxra Axmadovna

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogic kasbga ijodiy munosabatni tarbiyalashning nazariy asoslari.................336
Axmatov Ibrohimjon Furqat o'g'li

Voyaga yetmaganlar profilaktikasida maktab, oila va mahalla hamkorligining
zamonaviy holati va diagnostikasi .................................................................................................................340
Japparbergenova Indira Bayramovna

Yuqori sinf o'quvchilarining ijtimoiy va intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishni
pedagogik tizimini takomillashtirish ...............................................................................................................344
Amankosova Dinara Gabitovna

Innovatsion usullar vositasida maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutqini rivojlantirish ..............348
Mamatova Aziza Bo'riboyevna

Dzyudoning olimpiya o'yinlaridagi o'rni va ahamiyati ....................................................................................353
Jaxongir O'razbayev Temur o'g'li

Umumta'lim maktab o'quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga integratsiyalashgan
harbiy tarbiyaning ilmiy-nazariy asoslari.........................................................................................................356
A'zamov Inom Salimjonovich

The Role of Digital Platforms in Developing Students' Independent Learning Competency.........................360
Jo'rayeva Zamira Ishmuminovna, Uraqova Shaxlo Turdiyevna

Shaxsiy ta'lim trayektoriyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati .............................................365
Toshpo'latov Olim Panjiyevich

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida
faoliyat markazlarining ta'lim jarayonlarini tashkil etish ..................................................................................370
Bektemirova Asilabonu Akmal qizi

Kreativ ta'lim texnologiyalari asosida talabalarda innovatsion kompetensiyalarni
shakllantirish metodikasini takomillashtirish ..................................................................................................374
Sariboyev Nurali Abdunazarovich

Bolalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va yosh xususiyatlari ............................378
Erkinboyev Muhammadqodir Nodirbek o'g'li

Tasviriy san'at darslarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning
badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ........................................................................................................383
Xushvaqtov Abror Doniyor o'g'li

Raqamli ta'lim muhitida zamonaviy o'qitish metodlari va interaktiv texnologiyalardan foydalanishning
pedagogik imkoniyatlari ..................................................................................................................................387
Murodova Dilafro'z Matmurod qizi, Sattarova Bibijon Muzaffar qizi, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna

Kredit-modul tizimida o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish borasidagi milliy va xorijiy tajribalar .........391
Aralova Maxsuma Abdurahmonovna

Yuqori sinf o'quvchilariga chet til o'qitish va o'rgatishda motivatsiyaning o'rni xususida ..............................396
Atadjanova Shaxnoz Abbasovna, Ismoilova Feruza Salimjon qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda innovatsion metodlar ...............................................400
Axmedova Fayziniso Otabek qizi

Bo'lajak pedagoglarning uzluksiz amaliy faoliyatida professional salohiyatini rivojlantirish yo'llari ...............403
Habibullayeva Muxlisaxon Yorqinjon qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining PR kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi ....................406
J. B. Jumabayev

Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish ....................412
Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna

Biologiya ta'lim jarayonida ilg'or hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash ....................416
Mo'minov Dilshod Yaxshiboy o'g'li

Oliy ta'limda masofaviy ta'limning pedagogik-psixologik xususiyatlari ....................420
Mutalibova Muqaddasxon Abdunabi qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli platformalar orqali kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish ....................423
Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi, Saminjonova Sevaraxon Axmadjon qizi, Abdihakimova Muqaddas Fahridinova, Matsapayeva Nigora Satbay qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining etnopedagogik kompetentligini shakllantirishda milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san'atining didaktik imkoniyatlari ....................428
Pardayeva Gulchexra Safarovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari ....................432
Qipchaqova Sevinchxon Farxodjon qizi

Maktabgacha ta'lim boshqaruvida ERP tizimlarini integratsiyalashning proaktiv modeli ....................436
Raxmatillayev Oyatillo Zikrillayevich

Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish va loyihalashtirish ....................439
Sadikova Shoista Akbarovna, Yangiboyeva Salomat Samandarovna, Yangiboyeva Sevinch Samandarovna

Milliy hunarmandchilik buyumlarini yasash orqali o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish ....................442
Xayitov Jonibek Xolboboyevich, Nabijonova Nilufar Nabijon qizi

Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish ....................446
Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li

Сравнительно-типологический анализ юмора и гуманизма в творчестве Гафура Гуляма и Марка Твена ....................451
Абдумуминова Махлиё

Особенности фонетико-фонематической речи (качественные и количественные) у младших школьников с речевыми расстройствами ....................453
Заирова Н. Б.



# UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA INTEGRATSIYALASHGAN HARBIY TARBIYANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

A'zamov Inom Salimjonovich
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'qituvchisi, dotsent

**Annotatsiya:** Umumta'lim maktabi o'quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga integratsiyalashgan harbiy tarbiyaning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. O'zbekiston Respublikasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining milliy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni, yosh avlodda intizom, mas'uliyat va sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining nazariy asoslari hamda unga oid metodik yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Milliy qadriyatlar – Vatanga sadoqat, tarixiy meros va milliy g'urur kabi tushunchalarni umuminsoniy qadriyatlar – inson huquqlari, tinchlik, tolerantlik va shaxsiy rivojlanish tamoyillari bilan uyg'unlashtirishning ilmiy asoslanganligi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Vatanga sadoqat, tarixiy meros, milliy g'urur, inson huquqlari, tinchlik, tolerantlik, shaxsiy rivojlanish, oila, mahalla, umuminsoniy qadriyatlar, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi.

**Abstract:** The scientific and theoretical foundations of military education integrated with national and universal values among students of general education schools are examined. The role of military-patriotic education in ensuring national security in the Republic of Uzbekistan, as well as its significance in developing discipline, responsibility, and a healthy lifestyle among young people, is analyzed. The theoretical foundations of military-patriotic education and methodological approaches to its implementation are also discussed. The importance of harmonizing national values – loyalty to the Motherland, historical heritage, and national pride – with universal values such as human rights, peace, tolerance, and personal development is scientifically substantiated.

**Key words:** loyalty to the Motherland, historical heritage, national pride, human rights, peace, tolerance, personal development, family, mahalla, universal values, military-patriotic education.

**Аннотация:** Раскрываются научно-теоретические основы военного воспитания, интегрированного с национальными и общечеловеческими ценностями, у учащихся общеобразовательных школ. Проанализирована роль военно-патриотического воспитания в обеспечении национальной безопасности Республики Узбекистан, а также его значение в формировании у молодёжи дисциплины, ответственности и здорового образа жизни. Рассмотрены теоретические основы военно-патриотического воспитания и методические подходы к его организации. Обоснована необходимость гармоничного сочетания национальных ценностей – верности Родине, исторического наследия и национальной гордости – с общечеловеческими ценностями, такими как права человека, мир, толерантность и личностное развитие.

**Ключевые слова:** верность Родине, историческое наследие, национальная гордость, права человека, мир, толерантность, личностное развитие, семья, махалля, общечеловеческие ценности, военно-патриотическое воспитание.

## KIRISH

Jahonda sodir bo'layotgan keskinliklar fonida mazkur mavzu bugungi global kontekstda o'ta dolzarb va zarur hisoblanadi. U nafaqat milliy xavfsizlik va yoshlar tarbiyasi, balki zamonaviy geosiyosiy tahdidlar, gibrid urushlar hamda fuqarolik jamiyatini mustahkamlash masalalariga ham javob beradi. Dunyoda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi umumta'lim maktablarida integratsiyalashgan holda amalga oshirilmoqda va bu jarayon milliy g'urur bilan umuminsoniy qadriyatlar – inson huquqlari, tinchlik, mas'uliyat va fuqarolik burchini uyg'unlashtirishga asoslanadi.

Hozirgi dunyoda qurolli mojarolar – Ukraina, Yaqin Sharq, Osiyo va Afrika mintaqalaridagi keskinliklar hamda gibrid tahdidlar kuchaygan. Bunday sharoitda koʻplab davlatlar yosh avlodni mudofaa ruhida tarbiyalashga majbur boʻlmoqda. Dunyo davlatlarining umumta'lim maktablarida harbiy tarbiya nafaqat "qurol tutish"ni, balki intizom, jismoniy chidamlilik va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish vositasi sifatida ham qaralmoqda.

Xalqaro miqyosda esa "Maktablarni harbiy foydalanishdan himoya qilish boʻyicha koʻrsatmalar" (Safe Schools Declaration, 122 ta davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlangan) urush davrida maktablarni himoya qilishga qaratilgan boʻlsa, tinchlik davrida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi milliy xavfsizlikning asosiy komponenti hisoblanadi. Zarurat shundaki, zamonaviy yoshlar orasida intizom, mas'uliyat va sogʻlom turmush tarzi yetishmasligi kuzatilmoqda.

Harbiy tarbiya ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga, ekstremizm va "yot gʻoyalar"ga qarshi mafkuraviy immunitet hosil qilishga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar – Vatanga sadoqat, tarixiy meros va milliy gʻurur – umuminsoniy qadriyatlar, ya'ni inson huquqlari, tinchlik, tolerantlik va shaxsiy rivojlanish bilan uygʻunlashtirilganda tarbiya jarayoni muvozanatli boʻladi. Bu esa militarizm yoki agressiyani emas, balki "mudofaa vatanparvari"ni shakllantiradi. Oʻzbekiston tajribasida ham mazkur yondashuv milliy mustaqillik mafkurasi, oila, mahalla va umuminsoniy tamoyillar bilan bogʻliq holda ilmiy jihatdan asoslangan.

Oʻzbekiston Respublikasining umumta'lim maktablarida oʻquvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar integratsiyalashgan harbiy tarbiyani shakllantirish metodikasi bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimining eng dolzarb yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur metodika oʻquvchilarni nafaqat jismoniy va harbiy jihatdan tayyorlash, balki ularning ma'naviy dunyoqarashini milliy an'analar – Vatan sevgisi, ajdodlar hurmati, mustaqillik gʻururi – hamda umuminsoniy qadriyatlar – inson huquqlari, tinchlik, bagʻrikenglik va ekologik mas'uliyat asosida shakllantirishni nazarda tutadi.

Zamonaviy Oʻzbekistonda, ayniqsa, "Yangi Oʻzbekiston" strategiyasi doirasida yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini yangi bosqichga koʻtardi. Xususan, 2020-yil 17-apreldagi Vazirlar Mahkamasining 237-son qarori bilan umumiy oʻrta ta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik sinflari faoliyatini tashkil etish choralari belgilangan boʻlib, ushbu sinflarda oʻquv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik usullar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish nazarda tutilgan. Mazkur qaror mavzuning huquqiy asosini yaratib, uning amaliy ahamiyatini yanada oshirgan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv sharoitida yoshlar nafaqat milliy oʻzlikni saqlab qolishi, balki xalqaro hamjamiyat qadriyatlarini ham qabul qilishi lozim. Harbiy tarbiya faqat qurol ishlatishni emas, balki Vatan himoyasini ma'naviy va axloqiy jihatdan anglashni ham oʻz ichiga oladi. Integratsiyalashgan yondashuv esa oʻquvchilarda qat'iy vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirib, bir vaqtning oʻzida tinchlikparvar va insonparvar shaxsni tarbiyalaydi.

Bundan tashqari, mavzuning dolzarbligi, avvalo, geosiyosiy va ijtimoiy jarayonlar bilan bogʻliqdir. Oʻzbekiston neytral siyosat yuritayotgan boʻlsa-da, mintaqaviy tahdidlar – terrorizm, gibrid urushlar va kibertahdidlar, shuningdek, global inqirozlar – iqlim oʻzgarishi va migratsiya jarayonlari yoshlarni harbiy jihatdan tayyorlashni taqozo etmoqda. "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat toʻgʻrisida"gi Qonunga muvofiq yoshlar chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlikdan oʻtishi shart. Biroq bugungi kunda ushbu tayyorgarlik nafaqat jismoniy, balki ma'naviy-integratsiyalashgan mazmunga ega boʻlishi zarur.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, harbiy-pedagogik ta'limni tashkil etishning dolzarbligi zamonaviy ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon boʻlmoqda. Yoshlar orasida vatanparvarlik ruhini kuchaytirish, milliy armiyani gʻurur manbai sifatida shakllantirish zarurati alohida ahamiyat kasb etadi. 2016-yildan buyon maktablarda oʻtkazib kelinayotgan "Harbiy-vatanparvarlik oyligi" doirasidagi "Milliy armiyamiz – gʻururimiz", "Vatan himoyasi yoʻlida" kabi tadbirlar ushbu yoʻnalishdagi izchil davlat siyosatini aks ettiradi.

Ikkinchi muhim jihat ma'naviy tahdidlar bilan bogʻliqdir. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan yot gʻoyalar hamda radikal qarashlar yoshlarning milliy qadriyatlardan uzoqlashishiga sabab boʻlishi mumkin. Shu bois milliy qadriyatlar – Amir Temur an'analari, "Temurbeklar maktabi" tajribasi kabi tarixiy-ma'naviy omillar hamda umuminsoniy qadriyatlar – BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, tinchlik madaniyati tamoyillari integratsiyasi asosida oʻquvchilarda mustahkam dunyoqarashni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. "Yangi Oʻzbekiston" sharoitida ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishi ham aynan mazkur integratsiyalashgan yondashuvga asoslanib, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Uchinchi jihat ta'lim sifati bilan bogʻliqdir. Bugungi kunda umumta'lim maktablarida "Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik" fani oʻqitilmoqda, biroq uning metodikasini zamonaviy talablar asosida takomillash-

tirish zarur. Integratsiyalashgan harbiy tarbiya o'quvchilarni nafaqat harbiy xizmatga tayyorlash, balki ularni fuqarolik jamiyatining faol a'zosi sifatida shakllantirishga ham xizmat qiladi. Bu esa "Temurbeklar maktabi" kabi maxsus ta'lim muassasalari tajribasini umumta'lim maktablari faoliyatiga keng joriy etishni taqozo etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan integratsiyalashuviga oid ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda pedagogik adabiyotlar tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tizimli va konseptual yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, umumta'lim maktablarida olib borilayotgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi amaliyoti, "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanining mazmuni hamda "Temurbeklar maktabi" faoliyatiga oid tajribalar o'rganildi.

Tadqiqot davomida kuzatish, ilmiy manbalarni umumlashtirish, pedagogik tajribalarni tahlil qilish hamda mavjud metodikalarni solishtirish usullaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga integratsiyalashgan harbiy tarbiyaning samarali pedagogik mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mavzuning zarurati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qonunlarida mustahkamlangan. "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonun harbiy tarbiyani majburiy yo'nalish sifatida belgilaydi, biroq uni faqat texnik emas, balki axloqiy-integratsiyalashgan tarzda amalga oshirish zarurligini ham ta'kidlaydi. Vazirlar Mahkamasining 237-son qarorida harbiy-vatanparvarlik sinflari o'quvchilarini Vatan himoyasiga tayyorlash, ularning milliy g'ururini oshirish kabi maqsadlar aniq belgilab berilgan.

Mavzuning ijtimoiy zarurati yoshlarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash, harbiy tarbiya orqali ularda intizom, iroda hamda jamoaviy ruhni shakllantirish bilan izohlanadi. Shu bilan birga, armiyani professional darajaga ko'tarish ham muhim ahamiyatga ega. Maktab davridan boshlab tayyorlangan yoshlar keyinchalik oliy harbiy ta'lim muassasalari uchun tayyor kadr sifatida qaraladi.

"Temurbeklar maktabi" tajribasi shuni ko'rsatadiki, harbiy tarbiya yoshlarning harbiy sohaga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ularga oliy harbiy o'quv yurtlariga kirishda muayyan imkoniyatlar yaratadi. Mazkur tajribani umumta'lim maktablari faoliyatiga keng joriy etish zarur, chunki har bir o'quvchi potensial Vatan himoyachisi hisoblanadi.

Mazkur zaruratning iqtisodiy jihati ham mavjud. Professional armiya tizimi xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi, chunki maktabdan boshlab tayyorlangan yoshlar harbiy muhitga tezroq moslashadi. Ijtimoiy jihatdan esa integratsiyalashgan tarbiya yoshlar orasida jinoyatchilik va radikalizmning kamayishiga yordam beradi, chunki ular milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalanadi.

Oilaviy va mahalla tarbiyasi bilan uzviylikni ta'minlash maqsadida milliy qadriyatlar – ota-onaga hurmat, mahalla tushunchasi va jamoaviy hamjihatlik kabi tamoyillarni harbiy tarbiya mazmuniga singdirish muhimdir. Natijada o'quvchi oila va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq his etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasining zarurati esa tinchlikni saqlash va insonparvarlikni ta'minlash bilan bog'liqdir. Masalan, harbiy tarbiya jarayonida ekologik mas'uliyat hamda boshqa xalqlarga hurmat ruhida tarbiya berilsa, o'quvchi nafaqat milliy manfaatlarni, balki global fuqarolik tamoyillarini ham anglaydigan shaxs bo'lib yetishadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, maktab va maktabgacha ta'lim tizimida milliy tarbiya hamda qadriyatlarni rivojlantirish barkamol jamiyat qurishning muhim asoslaridan biridir.

Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasi mafkuraviy kurashda muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Bu esa mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi, chunki yoshlar turli yot g'oyalarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitetga ega bo'lishi zarur.

Integratsiyalashgan metodikaning zarurati shundan iboratki, an'anaviy harbiy tarbiya – qurol bilan ishlash va jismoniy mashqlar – bugungi kunda yakka holda yetarli emas. Milliy qadriyatlar – Amir Temur merosi, "Temurbeklar maktabi" g'oyalari – hamda umuminsoniy qadriyatlar – inson huquqlari, gender tengligi va ekologik mas'uliyat – uyg'unlashganda, o'quvchi barkamol shaxs sifatida shakllanadi.

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun dars jarayonida "Vatan himoyasi" mavzusini milliy tarix va xalqaro huquq bilan bog'liq holda o'qitish, "Harbiy-vatanparvarlik oyligi", sport musobaqalari hamda mahalla bilan hamkorlikdagi tadbirlarni yanada jadallashtirish zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

"Umumta'lim maktablarida o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga integratsiyalashgan harbiy tarbiyani shakllantirish metodikasi" mavzusi nafaqat dolzarb, balki O'zbekistonning mustaqilligi va taraqqiyotini ta'minlash uchun ham zarur hisoblanadi. Mazkur yondashuv yosh avlodni Vatan himoyachisi va tinchlikparvar fuqaro sifatida tarbiyalab, "Yangi O'zbekiston"ning ma'naviy yuksalishiga munosib hissa qo'shadi.

Kelgusida ushbu metodikani maktab darsliklariga kiritish, o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish hamda raqamli platformalar, jumladan, virtual harbiy simulyatsiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Natijada mamlakatimiz Qurolli Kuchlari yanada kuchayadi, yoshlar esa ma'naviy jihatdan barkamol va mustahkam shaxs sifatida shakllanadi.

Mavzuning ilmiy tadqiq etilishi va amaliyotga joriy qilinishi orqali O'zbekiston yoshlari nafaqat milliy g'urur, balki butun insoniyat qadriyatlarini himoya qiluvchi avlod sifatida voyaga yetadi. Bu esa mustaqillikning eng ishonchli kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar tushunchasining pedagogik mohiyati ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsni barkamol rivojlantirish, uning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish hamda jamiyatga moslashtirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tushuncha pedagogik aksiologiya – qadriyatlar haqidagi falsafiy ta'limot doirasida o'rganilib, ta'limning gumanistik mazmunini belgilaydi.

Milliy qadriyatlar xalqning madaniy merosi, an'analari, urf-odatlari, tarixiy taraqqiyoti, diniy e'tiqodlari va turmush tarzi asosida shakllangan tamoyillardir. Ular qatoriga vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, o'zaro yordam, mehnatsevarlik, adolatparvarlik hamda mehr-oqibat kabi tushunchalar kiradi. Mazkur qadriyatlar millatning o'ziga xosligini saqlash va uni avloddan avlodga yetkazishni ta'minlaydi.

Umuminsoniy qadriyatlar esa insoniyatning umumiy axloqiy va ma'naviy tamoyillariga asoslanadi. Ular qatoriga ezgulik, insonparvarlik, erkinlik, adolat, tinchlik va bag'rikenglik kabi tushunchalar kiradi. Ushbu qadriyatlar barcha xalqlar va jamiyatlar uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lib, global dunyoda hamkorlik hamda ijtimoiy moslashuvni ta'minlaydi.

Mazkur ikki turdagi qadriyatlar bir-biridan ajralmasdir. Milliy qadriyatlar umuminsoniy tamoyillar asosida rivojlanadi, umuminsoniy qadriyatlar esa milliy madaniyat orqali amaliyotda o'z ifodasini topadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-458-sonli "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ-406-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-apreldagi PQ-5465-sonli "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etishning dolzarb masalalari to'g'risida"gi Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-232-sonli "Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-sonli "O'quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-sonli "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 8-noyabrdagi 591-sonli "Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Maktabgacha hamda maktab ta'limi vazirligining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'quv-moddiy bazasini 2024–2028-yillarda mustahkamlash dasturi (591-son qaror ilovasi).
15. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha dastur. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021-yil.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

**Mas’ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №5(3)**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.